

ENDOKRIN TIZIMI KASALLIKLARI

*Teshaboyeva Mahliyoxon Kimsanboyevna
Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi
Maxsus fani o'qituvchisi .*

Endokrin tizimi kasalliklarining alomatlari

Endokrin tizimi inson tanasida deyarli barcha hayotiy jarayonlarni tartibga solishda juda muhim rol o'ynaydi. Ichki sekretsiya bezlari garmonlar ishlab chiqaradi, bu jarayonni buzilishi jiddiy kasalliklarga olib keladi. Ko'pchilik boshlang'ich davrda organizmdagi o'zgarishlarga befarq bo'ladi yoki charchoq, stress va boshqa holatlarga bog'lab, shifokorga murojaat qilmaydi. Kasallik kuchayib ketmasidan avval endokrinolog shifokori bilan maslahatlashib, boshlang'ich davridayoq davolash va salbiy oqibatlarining oldini olish zarur.

Tomoq og'rig'i

Yutinganda tomoqda og'riq, qichishish, narsa tiqilgandek bo'lishi, ovoz tembrining o'zgarishi kuzatiladi. Bunday o'zgarishlar shamollash bilan bog'liq bo'lmasa, tez-tez qaytalansa, muntazam ko'rinishga o'tsa, bu qalqonsimon bez patologiyasi bo'lishi mumkin. Bezning kattalashishi yoki unda tugunchalar paydo bo'lishi yon atrofdagi to'qimalar, nerv tolalarining siqilishiga olib keladi va natijada shunday belgilar paydo bo'ladi.



Sochlarning faol to‘kilishi yoki tez o‘sishi, ko‘payishi


Ayollarning yuzida tuklarning ko‘payishi, boshning old qismidagi sochlar siyraklashishi, teri quruqligi, qichishish, tashqi ta’sirga sezgirlikning oshishi – bu jinsiy bezlar gormonal muvozanat buzilganligi tufayli, estrogenlarning kamayishi va testesteronning ko‘payganligini bildiradi.

Tana vaznining keskin o‘zgarishi

Ishtahaning keskin o‘zgarishi, og‘iz qurishi, tashnalik, tez-tez peshobga chiqish, oyoqlarning boldir qismida og‘riq, uvishish paydo bo‘lsa, ko‘rish qobiliyati pasaysa, vazn keskin kamaya boshlasa, qandli diabet kasalligi boshlangan bo‘lishi mumkin. Qalqonsimon bez faolligi ortsa, ishtaha ochilishi, ichak harakatining kuchayishi va vazn yo‘qotish alomatlari paydo bo‘ladi.

Endokrin kasallıkları

- ISBlarining faoliyati buzilganda endokrin kasallari vujudga keladi.
- Me'yordan ko'p ishlab chiqarsa **giperfunksiya** deyiladi.
- Me'yordan kam ishlab chiqarsa **gipofunksiya** deyiladi.



Asabiylashish

Haddan tashqari asabiylik, jizzaki bo'lib qolish, kayfiyatning tushunarsiz o'zgarishi, to'satdan ko'z yosh qilish, birdan eyforiya – xushchaqchaq holatga o'tish endokrin tizimi patologiyasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Diqqatni jamlay olmaslik

Hatto odatiy vazifalarga ham diqqatni jamlay olmaslik, ma'lumotni sekin qabul qilish, uyquchanlik, kundalik ishlarga erinchoqlik, biror ishni qilolmaslik qo'rquvi qalqonsimon bez faoliyatining pasayishi bilan bog'liq.

Umumiylalomatlar

Terlashning kuchayishi, tana haroratining tez almashinushi – isib yoki sovib ketish, bosh og'rig'i, yurak urish ritmining o'zgarishi kuzatiladi.

Endokrin kasallıklarni davolash

Endokrin kasallıklarni davolash murakkab bo'lishi mumkin, chunki bir gormon darajasining o'zgarishi boshqasini tashlashi mumkin. Shifokoringiz yoki mutaxassisining muammolarni tekshirish yoki dori-darmonlar yoki davolash rejangizni sozlash kerakmi yoki yo'qmi, aniqlash uchun kundalik qon ishlarini buyurishi mumkin.



Endokrin sistemasi faoliyati buzilishilarining uchinchi mexanizmi ichki sekresiya bezlari bilan organlar («nishon organlar») o'rtaсидаги bog'lanishining buzilishi hisobланади. Bu mexanizm gormonlar transporti buzilishi parchala-nishini o'z ichiga oladi.

Endokrin bezlar faoliyatining buzilishi ikki asosiy shaklda: giperfunksiya (ortiqcha funksiya) va gipofunksiya (etarli bo'limgan funksiya) bilan namoyon bo'ladi.

Sizni sog'liq va farovonlik yo'lida qoldirish uchun **endokrin kasalliklarning tabiiy davolash usullari** mavjud. Agar sizda allaqachon endokrin muvozanat mavjud bo'lsa, bu mahsulotlar sizni sog'liq va sog'lomlashtirish tomon harakatga keltirsa juda muhimdir.

ENDOKRIN KASALLIKLARINI TASHXISLASH


Endokrin kasalliklarni tashxislash gormonal muvozanatning buzilishiga sabab bo'lgan ichki sekretsiya bezlari faoliyatini o'rganish va aniqlashga qaratilgan murakkab jarayondir. Endokrin tizimi turli xil organ va to'qimalarning o'zaro bog'liq funksiyalarini boshqaradigan gormonlarni ishlab chiqaradi. Bu tizimdagи buzilishlar tananing deyarli barcha funksiyalariga ta'sir ko'rsatishi mumkin, shu sababli tashxislash jarayoni har tomonlama va aniq bo'lishi kerak.



Endokrin kasalliklarni tashxislash jarayonida simptomlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon kasallikning klinik belgilari va ularning rivojlanishini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot ishimizda qandli diabetning 1-chi va 2-chi turlariga tegishli bo‘lgan simtomlar va belgilarni olingan ma’lumotlarga tayangan holda aniqlab olinadi.

Simptomlarni shakllantirish bosqichlari diagnostika va davolash jarayonining asosidir. To‘g‘ri va samarali yondashuv bemorlarga nafaqat sog‘lig‘ini saqlab qolish, balki asoratlar va ortiqcha stressdan qochish imkonini beradi. Bu esa, umuman olganda, bemorning salomatligi va jamiyatda endokrin kasalliklarni boshqarish samaradorligini oshiradi.

Kasallikni erta aniqlash simptomlarni to‘g‘ri shakllantirish orqali endokrin kasalliklarni, xususan qandli diabetni erta bosqichda aniqlashga erishildi. Bu kasallikni rivojlanishini to‘xtatish va davolashning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



To‘g‘ri tashxis qo‘yish Simptomlarning batafsil tahlili va tasnifi aniq tashxis qo‘yish imkoniyatini yaratdi. Bu boshqa kasalliklardan farqlash va noto‘g‘ri davolashning oldini olishga yordam berdi. Individual davolash rejalar shakllantirildi simptomlar yordamida bemorlarning individual ehtiyojlariga mos davolash rejalarini ishlab chiqish mumkin bo‘ldi. Bu yondashuv kasallikni samarali boshqarishga ko‘maklashadi. Kasallik rivojlanishini kuzatish simptomlarning dinamik kuzatuvi natijasida kasallikning rivojlanish jarayonini monitoring qilish va davolash usullarini moslashtirish imkoniyati yaratildi. Asoratlarning oldini olish Diabet va boshqa endokrin kasalliklarning simptomlarini erta aniqlash orqali jiddiy asoratlar, masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, nevropatiya va nefropatiyaning oldini olishga erishildi. Bemorlarning hayot sifatini yaxshilash simptomlarni samarali boshqarish orqali bemorlarning umumiy hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Ularning sog‘lom va faol hayat tarzini saqlab qolishiga imkon yaratiladi. Tibbiy resurslardan samarali foydalanish simptomlarni aniq va to‘g‘ri shakllantirish diagnostika jarayonini optimallashtirishga, vaqt va resurslarni tejashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov.G`O. “Ichki kasalliklar”Toshkent “Abu Ali ibn sino”nashriyoti 2002 yil.
2. Ziyaeva M.F “Terapiya” “Ilm ziyo” nashriyoti 2014 yil.
3. Tursunov S.T. “Sog‘lom turmush tarsi”Toshkent “Ilm ziyo”nashriyoti 2006 yil.Qo`shimcha adabiyotlar:
4. Qarshiboeva M.T. “Terapiyada hamshiralik ishi”metodik qo’llanma. Toshkent, 2007 yil.V.
5. Internet saytlari
6. www.ziynet.uz. www.wikipedia.uz.www.Lexuz.uz.